O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

CHET TILLARNI O‘QITISH METODIKASIDA TADQIQOT DIZAYNINI TANLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Samadova Svetlana Jontoshevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, (PhD).

Annotatsiya.

Mazkur maqolada tadqiqot dizayni tushunchasining nazariy-metodologik mazmuni, uning ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish usullaridan farqli jihatlari, shuningdek, chet tillarni o‘qitish metodikasida tadqiqot savoli va maqsadiga muvofiq tadqiqot dizaynini tanlash mezonlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tadqiqot dizayni, tadqiqot metodologiyasi, tadqiqot savoli, tadqiqot yondashuvi, ma’lumotlarni to‘plash, ma’lumotlarni tahlil qilish, eksperimental dizayn, kvazi-eksperimental dizayn, sifat tadqiqoti, miqdoriy tadqiqot, aralash metodli tadqiqot.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫБОРА ДИЗАЙНА ИССЛЕДОВАНИЯ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Самадова Светлана Жонтошевна

Чирчикский государственный педагогический университет, (PhD).

Аннотация.

В данной статье анализируются теоретико-методологическое содержание понятия «дизайн исследования», его отличия от методов сбора и анализа данных, а также критерии выбора дизайна исследования в соответствии с исследовательским вопросом и целью исследования в методике преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: дизайн исследования, методология исследования, исследовательский вопрос, исследовательский подход, сбор данных, анализ данных, экспериментальный дизайн, квазиэкспериментальный дизайн, качественное исследование, количественное исследование, исследование смешанными методами.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR SELECTING A RESEARCH DESIGN IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY

Samadova Svetlana Jontoshevna

Chirchiq State Pedagogical University, (PhD).

Abstract.

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the concept of research design, its distinctions from methods of data collection and analysis, as well as the criteria for selecting an appropriate research design in accordance with the research question and research objectives in foreign language teaching methodology.

Keywords: research design, research methodology, research question, research approach, data collection, data analysis, experimental design, quasi-experimental design, qualitative research, quantitative research, mixed-methods research.

Kirish. Bugungi kunda chet tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan bir qatorda, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslarini takomillashtirish ham muhim ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chet tillarni o‘qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar, ta’lim metodlari, o‘quv vositalari va metodik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash, ta’lim oluvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirish omillarini o‘rganish hamda mavjud pedagogik muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish tadqiqotning puxta loyihalashtirilishini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot dizaynini to‘g‘ri tanlash metodik tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va olingan natijalarning ishonchliligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Amaliy tilshunoslik va ikkinchi tilni o‘rganish tadqiqotlarida tadqiqot jarayoni muammoni aniqlash, tadqiqot savollarini shakllantirish, tadqiqot dizaynini belgilash, ishtirokchilarni tanlash, ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish hamda natijalarni talqin etish kabi o‘zaro bog‘liq bosqichlarni qamrab oladi [3]. Zamonaviy tadqiqot metodologiyasiga oid manbalarda

“quantitative”, “qualitative” va “mixed-methods” yondashuvlar bilan bir qatorda, “experimental”, “quasi-experimental”, “correlational”, “survey”, “case study” va boshqa tadqiqot dizaynlari ham alohida ko‘rib chiqiladi. Bunda tadqiqot dizaynini tanlash tadqiqot savollari va maqsadlari bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, tadqiqot dizayni, ma’lumotlarni to‘plash usullari va ma’lumotlarni tahlil qilish usullarining o‘zaro farqini aniq belgilash metodik tadqiqotlar uchun alohida ahamiyatga ega. Masalan, “survey” tadqiqot dizayni bilan “questionnaire” yoki “survey” vositasida ma’lumot to‘plashni, “quasi-experimental design” bilan test o‘tkazishni yoki “mixed-methods research” bilan bir vaqtning o‘zida miqdoriy va sifat ma’lumotlarini yig‘ishni aynan bir xil metodologik hodisa sifatida talqin qilish tadqiqot tuzilmasining noaniq ifodalanishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy amaliy tilshunoslik tadqiqot metodologiyasida “design”, “data collection” va “data analysis”ning alohida, biroq o‘zaro bog‘liq komponentlar sifatida ko‘rilishi mazkur farqlashning muhimligini ko‘rsatadi.

Chet tillarni o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda esa tadqiqot dizaynini tanlash masalasi yanada amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki metodika samaradorligini aniqlash, ta’lim oluvchilarning munosabati yoki ehtiyojlarini o‘rganish, turli o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash yoki muayyan pedagogik vaziyatni chuqur tahlil qilish kabi turli ilmiy maqsadlar turli tadqiqot dizaynlarini talab etadi. Masalan, amaliy tilshunoslik tadqiqotlarida “experimental” va “quasi-experimental” dizaynlar o‘zgarishlarni o‘lchash va ta’limiy ta’sirni tekshirishda, “correlational” va “survey” dizaynlari esa tegishli munosabatlar yoki qarashlarni o‘rganishda qo‘llanadi [3]. Shundan kelib chiqib, chet tillarni o‘qitish metodikasida tadqiqot dizaynini tadqiqot muammosi, tadqiqot savoli, maqsadi va kutilayotgan dalillar bilan muvofiqlashtirish masalasini metodologik jihatdan tizimlashtirish zarurati yuzaga keladi.

Ilmiy tadqiqotning samaradorligi ko‘p jihatdan tadqiqot muammosining to‘g‘ri qo‘yilishi, tadqiqot savollarining aniq shakllantirilishi hamda ushbu savollarga javob berishga imkon beradigan tadqiqot dizaynining asosli tanlanishiga bog‘liq. Tadqiqot dizayni tadqiqot jarayonining umumiy mantiqiy tuzilishini belgilab, muammoni o‘rganish, ma’lumotlarni yig‘ish, ularni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish bosqichlarini o‘zaro bog‘laydi. Shu jihatdan tadqiqot dizayni alohida metod yoki ma’lumot yig‘ish vositasi emas, balki tadqiqotning maqsadi va savollaridan kelib chiqadigan umumiy strategik reja sifatida namoyon bo‘ladi [4].

Tadqiqot metodologiyasiga oid adabiyotlarda “research design” tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Biroq ularning umumiy jihati shundaki, tadqiqot dizayni tadqiqot muammosi, tadqiqot savollari, ishtirokchilar, ma’lumot manbalari, ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish usullari o‘rtasidagi mantiqiy aloqani ta’minlaydi. Demak, dizayn tadqiqotchining “nimani o‘rganish?” degan savolidan “bu hodisani qanday o‘rganish va olingan ma’lumotlar asosida qanday xulosaga kelish?” degan savolgacha bo‘lgan metodologik yo‘lini belgilaydi.

Tadqiqot dizaynini to‘g‘ri anglash uchun uni “research approach” va “research method” tushunchalaridan farqlash zarur. Tadqiqot yondashuvi, odatda, tadqiqotning bilish va ma’lumotlar bilan ishlashga oid umumiy metodologik yo‘nalishini ifodalaydi. Xususan, sifat (qualitative), miqdoriy (quantitative) va aralash (mixed-methods) yondashuvlar tadqiqot ma’lumotlarining tabiati, ularni talqin qilish usullari va tadqiqotchining hodisaga munosabati bilan bog‘liq. Metod esa ma’lumotlarni olish yoki tahlil qilishning muayyan usulini anglatadi. Masalan, intervyu, kuzatuv, so‘rovnoma, test, eksperiment va hujjat tahlili ma’lumot yig‘ish metodlari sifatida qo‘llanishi mumkin [3]. Dizayn esa ushbu elementlarni yagona tadqiqot mantiqiga birlashtiradi.

Masalan, chet tilini o‘qitish jarayonida ma’lum pedagogik aralashuvning samaradorligini aniqlash maqsad qilingan bo‘lsa, eksperimental yoki kvazi-eksperimental dizayn mos kelishi mumkin. Agar tadqiqotchining maqsadi muayyan ta’limiy hodisani chuqur tavsiflash va uning ishtirokchilar nuqtayi nazaridan qanday namoyon bo‘lishini aniqlash bo‘lsa, “case study” yoki boshqa sifatga asoslangan dizaynlar qo‘llanishi mumkin. Shunday qilib, bir xil ma’lumot yig‘ish metodi turli dizaynlar doirasida turlicha vazifani bajarishi mumkin.

Chet tillarni o‘qitish metodikasi sohasidagi tadqiqotlarda dizayn tanlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar til o‘rganish va o‘qitish jarayonining murakkab, ko‘p omilli hamda kontekstga bog‘liq xususiyatlarini o‘rganadi. Bunda o‘quvchilarning til kompetensiyasi, kommunikativ faoliyati, o‘qituvchi faoliyati, pedagogik texnologiyalar, o‘quv materiallari va ta’lim muhiti kabi omillar o‘zaro ta’sirda namoyon bo‘ladi [1]. Shu sababli tadqiqot dizaynini faqat tadqiqotchi uchun qulay bo‘lgan metod asosida belgilash metodologik jihatdan yetarli emas.

Ayniqsa, chet tilini o‘qitish metodikasida “qaysi metoddan foydalanish mumkin?” degan savoldan oldin “tadqiqot savoliga javob berish uchun qanday dizayn zarur?” degan savol qo‘yilishi lozim. Masalan, yangi o‘qitish metodining samaradorligini aniqlashga qaratilgan tadqiqotda natijalarni taqqoslash imkonini beruvchi eksperimental yoki kvazi-eksperimental dizayn talab etilishi mumkin. Aksincha, o‘qituvchi yoki o‘quvchilarning ma’lum pedagogik tajribasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotda sifat tadqiqot dizaynlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bir nechta turdagi ma’lumotlarni birlashtirish zarur bo‘lgan holatlarda esa aralash metodli dizayn qo‘llanishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot dizaynini tanlash jarayoni bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlar asosida amalga oshirilishi lozim: tadqiqot muammosi, maqsadi, tadqiqot savollari, nazariy asosi, ma’lumotlarning tabiati, ishtirokchilar, tadqiqot konteksti va kutilayotgan natijalar. Ushbu komponentlarning o‘zaro muvofiqligi tadqiqotning metodologik izchilligini ta’minlaydi. Boshqacha aytganda, tadqiqot dizayni tadqiqotning barcha tarkibiy qismlarini birlashtiruvchi metodologik “ko‘prik” vazifasini bajaradi.

Chet tillarni o‘qitish metodikasida dizayn tanlashning yana bir muhim jihati tadqiqotning amaliy yo‘nalganligidir.

Mazkur sohada tadqiqot natijalari ko'pincha muayyan ta'lim texnologiyasi, mashqlar tizimi, o'qitish metodi yoki pedagogik shart-sharoitning samaradorligini asoslashga xizmat qiladi. Shu sababli tadqiqot dizayni nafaqat mavjud holatni tavsiflash, balki zarur hollarda pedagogik ta'sirning natijasini aniqlash va uning samaradorligini dalillar asosida ko'rsatish imkonini berishi kerak.

Demak, tadqiqot dizaynini tanlash mexanik ravishda tayyor dizaynlar ro'yxatidan birini tanlash emas, balki tadqiqot muammosi va savollaridan kelib chiqadigan metodologik qarorlar tizimidir. Aynan shu yondashuv chet tillarni o'qitish metodikasidagi tadqiqotlarning ichki mantiqiy yaxlitligini, ma'lumotlarning ishonchliligini va olingan natijalarning ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot savolining xarakteri dizayn tanlashning asosiy mezonlaridan biridir. Agar tadqiqotchi ma'lum bir pedagogik ta'sirning natijasini aniqlashni maqsad qilsa, eksperimental yoki kvazi-eksperimental dizayn mos keladi. Agar tadqiqotning maqsadi o'quvchilar yoki o'qituvchilarning ma'lum bir hodisaga munosabati, tajribasi yoki ehtiyojlarini aniqlashdan iborat bo'lsa, "survey design" maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Masalan, talabalarning onlayn ta'limga munosabati, chet tilini o'rganish strategiyalaridan foydalanishi yoki o'qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyaga bo'lgan munosabatini o'rganishda so'rovnoma asosidagi tadqiqotlardan foydalanish mumkin. Bunda ma'lumotlar ko'pincha tavsifiy va inferensial statistik usullar yordamida tahlil qilinadi.

Muayyan pedagogik jarayon yoki ta'limiy tajribani chuqur va kontekstual jihatdan o'rganish zarur bo'lgan hollarda "case study" dizaynidan foydalanish mumkin. Mazkur dizayn biror ta'lim muassasasi, guruh, o'qituvchi, kurs yoki pedagogik amaliyotni batafsil o'rganish imkonini beradi. Bunda intervyu, kuzatuv, hujjatlar tahlili, o'quvchilarning yozma yoki og'zaki ishlari kabi turli ma'lumot manbalaridan foydalanish mumkin. Shu sababli "case study" murakkab pedagogik hodisalarni ularning tabiiy kontekstida tahlil qilish uchun qulay metodologik imkoniyat yaratadi.

Chet tillarni o'qitish metodikasidagi ayrim muammolarni faqat miqdoriy yoki faqat sifat ma'lumotlari orqali to'liq yoritish qiyin bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda "mixed-methods design" qo'llanib, miqdoriy va sifat ma'lumotlari bir tadqiqot doirasida integratsiya qilinadi. Masalan, yangi pedagogik metodning samaradorligi test natijalari orqali aniqlanib, uning o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilingani intervyu yoki ochiq savolli so'rovnoma orqali o'rganilishi mumkin. Bu holatda turli turdagi ma'lumotlarning o'zaro to'ldiruvchanligi tadqiqot hodisasini kengroq yoritishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot dizaynini tanlashda yagona universal mezon mavjud emas. Dizayn tadqiqotning maqsadi, savollari, o'rganilayotgan hodisaning xususiyati, mavjud resurslar, ishtirokchilar va ma'lumotlarning turi bilan bog'liq holda belgilanadi. Ayniqsa, chet tillarni o'qitish metodikasida dizayn, ma'lumot yig'ish va ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining o'zaro muvofiqligi tadqiqotning metodologik izchilligini ta'minlovchi muhim shart hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, chet tillarni o'qitish metodikasida eksperimental, kvazi-eksperimental, survey, correlational, case study va mixed-methods kabi dizaynlar turli ilmiy maqsadlarga xizmat qiladi. Ularning har biri muayyan turdagi tadqiqot savollariga javob berish, tegishli dalillarni to'plash va ularni mos tahlil qilish imkonini beradi. Shu jihatdan tadqiqot dizaynini tanlashda uning tadqiqot maqsadi, savoli, o'rganilayotgan hodisaning xususiyati, ma'lumot turi, ishtirokchilar va tadqiqot konteksti bilan metodologik muvofiqligi asosiy mezon sifatida qaralishi lozim.

Shunday qilib, tadqiqot dizaynini tanlashni tadqiqotning dastlabki bosqichidanoq tizimli ravishda amalga oshirish chet tillarni o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlarning metodologik izchilligini ta'minlash, olingan dalillarning ishonchliligini oshirish va ilmiy xulosalarning asoslanganligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv tadqiqotchiga "qaysi metoddan foydalanish kerak?" degan savoldan oldin "qo'yilgan tadqiqot savoliga javob berish uchun qanday tadqiqot dizayni zarur?" degan metodologik savolni qo'yish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalolov J. *Chet tili o'qitish metodikasi.* – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
2. Isakulova N. J. *Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.* – Toshkent: Ideal Press, 2025. – 390 b.
3. Rose H., McKinley J., Briggs Baffoe-Djan J. *Data Collection Research Methods in Applied Linguistics.* – London: Bloomsbury Academic, 2019. – 312 p.
4. Shermuhamedova N. A. *Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.